

стабильную альтернативу традиционным финансовым механизмам, основанную на реальных активах и разделении рисков. Практические решения для стран СНГ включают: совершенствование законодательной базы; внедрение экспериментальных правовых режимов; развитие инструментов сукук (исламских ценных бумаг) для инфраструктурных проектов в туристической отрасли; создание специализированных финансовых институтов для туризма; повышение финансовой грамотности предприятий. Учитывая ежегодный рост мусульманского населения и спроса на этический туризм, исламское финансирование может стать катализатором притока новых инвестиций в туристическую сферу, обеспечивая устойчивое развитие регионов.

Список литературы:

1. Ахмадуллин Р.М. Принципы функционирования исламской финансовой системы // Вестн. Казан. юрид. ин-та МВД России. – 2011. – № 6. – С. 81–88.
2. Беккин Р.И. Исламское финансовое право и его роль в регулировании исламских финансов. Ученые записки Казанского университета. 2013. с.134-144
3. Гордеева О.Е., Львова Н.А. Исламская финансовая система // Вестн. С.-Петербур. Ун-та. Сер. 5: Экономика. – 2009. – Вып. 3. – С. 124–133.
4. Рахматуллаева Ф.М. Социально-экономическое значение исламского туризма в развитии региона, Вестник науки и образования, 2020, с.32-34
5. Калимуллина М.Э. Стандартизация исламских финансовых сделок. Актуальные проблемы российского права, 2017, с.122-126.
6. Садикова Р.А., Исламская экономика: принципы и практическое применение., Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 2025с.161-170

***Munavvar XUSNIDDINOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti***

TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: MOBIL ILOVALAR, BIG DATA VA AQLLI TIZIMLARNING XIZMAT SIFATIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasida raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari bo'lgan mobil ilovalar, big data tahlili va aqlli tizimlar turistik xizmatlar sifatiga ko'rsatayotgan ta'siri o'rganilgan. Jahon turizm bozorida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, ularga investitsiya kiritish va ulardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar asosida O'zbekiston turizm sohasi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, mobil ilovalar, big data, aqlli turizm tizimlari, onlayn bron qilish, turistik xizmatlar sifati, raqamli infratuzilma, barqaror turizm.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние цифровой трансформации в сфере туризма - в частности, мобильных приложений, анализа больших данных (Big Data) и интеллектуальных систем - на качество туристических услуг. Проанализированы процессы

внедрения цифровых технологий на мировом туристическом рынке, объёмы инвестиций в них и эффективность их использования. На основе анализа международных научных исследований разработаны практические рекомендации для туристической отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая трансформация, мобильные приложения, большие данные, интеллектуальные туристические системы, онлайн-бронирование, качество туристических услуг.

Abstract. This article examines the impact of mobile applications, big data analytics, and smart systems, which are the main directions of digital transformation in the tourism sector, on the quality of tourism services. The introduction of digital technologies in the global tourism market, the effectiveness of investment in them, and their use are analyzed. Based on international scientific research, practical recommendations for the tourism sector of Uzbekistan have been developed.

Keywords: digital transformation, mobile applications, big data, intelligent tourism systems, online booking, quality of tourism services, digital infrastructure, sustainable tourism.

Jahon turizm bozorida raqamli texnologiyalar sezilarli darajada innovatsion o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. So'nggi o'n yil ichida onlayn bron qilish tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar, mobil ilovalar va big data tahlili turizm sohasida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilashga olib keldi.¹¹³ 2024-yilda global sayohat va turizm sektori daromadlarining taxminan 70 foizi onlayn kanallar orqali shakllangan¹¹⁴.

O'zbekiston ham turizm sohasini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'lida izchil qadamlar qo'yimoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-87-son farmoniga asosan turizm va raqamli iqtisodiyot integratsiyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.¹¹⁵ Shu bilan birga, O'zbekistonda raqamli turizm infratuzilmasi hali to'liq shakllanmagan, bu sohadagi bo'shliqlarni bartaraf etish uchun xalqaro tajribani o'rganish va tatbiq etish dolzarb vazifadir.

Tadqiqotning maqsadi jahon turizm bozorida raqamli transformatsiya tendensiyalarini tahlil qilish, mobil ilovalar, big data va aqlli tizimlarning xizmatlar sifatiga ta'sirini aniqlash hamda O'zbekiston turizmi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Turizm sohasida raqamli transformatsiya deganda an'anaviy xizmat ko'rsatish modellarini raqamli texnologiyalar asosida tubdan qayta qurishni tushunish lozim. Bu jarayon uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchidan, operatsion samaradorlikni oshirish orqali xarajatlarni kamaytirish, resurslarni optimal taqsimlash; ikkinchidan, mijoz tajribasini yaxshilash, ya'ni, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, real vaqt rejimida aloqa xizmatlari; uchinchidan, yangi biznes modellarini yaratish, xususan, platformalar iqtisodiyoti hamda sharing iqtisodiyoti¹¹⁶.

¹¹³UNWTO. Tourism in the Digital Age: Trends and Strategies. World Tourism Organization, Madrid, 2024.

¹¹⁴ Statista. Online travel market worldwide – statistics & facts. Hamburg: Statista, 2024. URL: <https://www.statista.com/topics/2704/online-travel-market/>. (29.04.2026)

¹¹⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son Qarori. – T.: O'zbekiston, 2023.

¹¹⁶Zhang Q., Chen J.L., Li G., Jiao X. (2025). Digital transformation and tourism performance: A systematic literature

Raqamli iqtisodiyot va turizm integratsiyasining mintaqaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish va turizm diversifikatsiyasi parallel rivojlansa-da, bu jarayon hudud ichidagi tafovutlarni kuchaytirib yuborishi mumkin. Shu sababli raqamli turizm siyosati nafaqat samaradorlikka, balki mintaqaviy tenglikka ham yo'naltirilishi zarur¹¹⁷.

Raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga kompleks ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, mijoz tajribasini yaxshilash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirishni bir vaqtning o'zida ta'minlash imkoniyatini yaqqol namoyon etadi. Raqamli texnologiyalar turizm sohasida faqat vosita emas, balki sohaning kelajagi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylangan. Bu jarayonga kech qo'shilgan mamlakatlar nafaqat texnologik, balki iqtisodiy jihatdan ham orqada qolish xavfini tug'diradi.

1-jadval

Raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga ta'siri

Texnologiya turi	Asosiy ta'siri	Samaradorlik ko'rsatkichi	Manba
Mobil ilovalar	Bron qilish qulayligi va tezligi	Barcha bronlarning 60% mobil ilovalar orqali (2024)	Prostay, 2026 ¹¹⁸
Onlayn bron tizimlari	Raqamli savdo ulushini oshirish	Turizm daromadining 70% onlayn kanallar orqali (2024)	Statista, 2024 ¹¹⁹
Big data tahlili	Talabni prognozlash aniqligi	Sentament indeksleri mehmonxona talabini prognozlash aniqligini sezilarli oshirgan	Wu et al., 2025 ¹²⁰
Sun'iy intellekt (AI)	Mijozlarga xizmat ko'rsatish va daromad boshqaruvi	AI chatbotlar mijoz so'rovlarining 80% ni hal qiladi; mehmonxona daromadini 10% gacha oshiradi	ArtSmart AI, 2025 ¹²¹
Aqlli tizimlar (IoT)	Energiya sarfini kamaytirish	Energiya xarajatlari 20–25% ga kamaygan	Blueprint RF, 2025 ¹²²
Bulut hisoblash	Xarajatlarni optimallashtirish	Chatbotlar mijoz so'rovlarini hal qilish vaqtini 30% ga qisqartiradi	Technavio (2025) ¹²³

Manba: muallif tomonidan ko'rsatilgan manbalar asosida tuzilgan.

Mobil ilovalar zamonaviy turistning asosiy yo'ldoshi bo'lib qoldi. Sayyoh destinatsiyani tanlashdan tortib, yo'l haqi to'lashgacha barcha jarayonlarni smartfon orqali amalga oshirishi. Mobil online sayohat agentliklari (OTA) orqali mehmonxona

review and research agenda. *Tourism and Hospitality Research*. <https://doi.org/10.1177/13548166251383186>

¹¹⁷ Tian F., Weng G. (2024). The integration and challenges of digital economy with the tourism industry: Evidence from the Yellow River Basin in China. *Journal of Cleaner Production*, 475, 143672. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2024.143672>

¹¹⁸ Prostay. Hotel Booking Statistics: 2026 Market Insights and Trends. <https://www.prostay.com/blog/hotel-booking-statistics-2025-market-insights-and-trends/>

¹¹⁹ Statista. Online travel market worldwide – statistics & facts. Hamburg: Statista, 2024. <https://www.statista.com/topics/2704/online-travel-market/>

¹²⁰ Wu D.C., Zhong S., Wu J., Song H. (2025). Tourism and hospitality forecasting with big data. *Journal of Hospitality & Tourism Research*, 49(3), 615–634.

¹²¹ ArtSmart AI. AI in Tourism Statistics 2025: Market Growth & Innovation. <https://artsmart.ai/blog/ai-in-tourism-statistics/>

¹²² Blueprint RF. 10 Transformative Examples of IoT Solutions Used In Hotels, 2025. <https://www.blueprintrf.com/iot-solutions-for-hotels/>

¹²³ Technavio. AI In Tourism Market Growth Analysis – Size and Forecast 2025–2029. <https://technavio.com/report/ai-in-tourism-market-industry-analysis>

bronlash vositalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, sayyohlar uchun eng muhim omillar: ma'lumot sifati, to'lov qulayligi, ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya va a'zolik tizimining qulayligidir¹²⁴. Shunga qaramay, mobil ilovalarda navigatsiya va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar yetarli darajada rivojlanmagan, sohadagi kamchilik sifatida qarash mumkin.

Raqamli moliya mexanizmlari turizmga investitsiyalarni jalb qilishda va resurslarni samaraliroq taqsimlashda yangi harakatlantiruvchi kuch sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa moliya bozorlari kam rivojlangan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi¹²⁵.

O'zbekistonda 2025-yilda turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni birlashtirish maqsadida "Milliy turizm yagona platformasi" ishga tushirilgan bo'lib, unda mehmonxona xizmatlarini onlayn band qilish, baholash hamda avia, temir yo'l va viloyatlararo avtobus chiptalarini xarid qilish imkoniyati yo'lga qo'yilgan. MyID tizimi orqali fuqarolarni identifikatsiya qilish hamda QR-kod va yuzni tanish tizimi orqali mehmonlarni ro'yxatga olish mexanizmlari ham joriy etilgan¹²⁶. Elektron bron qilish va to'lov tizimlari turizmning eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri hisoblanadi. Real vaqt rejimida narx va mavjudlikni ko'rsatuvchi platformalar sayyohlarning qaror qabul qilish jarayonini sezilarli soddalashtiradi.

Katta ma'lumotlar tahlili turizm va mehmondo'stlik sohasida talabni prognozlashda asosiy vositalardan biri. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn sharhlar, qidiruv so'rovlari va real vaqt ma'lumotlarini tahlil qilish an'anaviy prognozlash usullariga nisbatan yuqori natijalar bermoqda. Jumladan, mehmonxona sharhlari asosida qurilgan iste'mol kayfiyati indeksleri mehmonxona talabini prognozlash aniqligini oshirgan¹²⁷.

Biroq tadqiqotlar katta ma'lumotlar tahlilida bir qancha cheklovlar mavjud. Xususan, olib borilayotgan ilmiy ishlarda foydalanuvchi tomonidan yaratilgan onlayn sharhlar, forum yozishmalari asosida prognozlash modellaridan yetarlicha foydalanilmayapti, bu sohadagi bo'shliqlardan biri.

Sun'iy intellektning turizm sohasidagi innovatsiyalari mijoz qoniqishi va xizmatdan foydalanishni davom ettirish niyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Sun'iy intellekt innovatsiyalari va yangi mahsulot ustunligi funktsional imtiyozlarni kuchaytirish orqali sayyohlarning qoniqishini va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlardan foydalanishni davom ettirishga bo'lgan intilishini oshiradi¹²⁸. Biroq ba'zi tadqiqotda antropomorfizm sun'iy intellekt samaradorligiga qo'shimcha

¹²⁴ Sun S., Law R., Hyun S.S. (2024). Exploration of hotel reservation through mobile online travel agencies. *International Journal of Tourism Research*, 26, e2734. <https://doi.org/10.1002/jtr.2734>

¹²⁵ Xu Z. (2025). The new driving force for improving tourism resource allocation efficiency: The mechanism of digital finance. *Finance Research Letters*, 85, 108105. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2025.108105>

¹²⁶ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/sections/ijtimoiy-ahamiyatga-molik-ma-lumotlar>

¹²⁷ Wu D.C., Zhong S., Wu J., Song H. (2025). Tourism and hospitality forecasting with big data: A systematic review of the literature. *Journal of Hospitality & Tourism Research*, 49(3), 615–634. <https://doi.org/10.1177/10963480231223151>

¹²⁸ Ku E.C.S., Chen C.D. (2024). Artificial intelligence innovation of tourism businesses: From satisfied tourists to continued service usage intention. *International Journal of Information Management*, 76, 102757. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2024.102757>

kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatmadi¹²⁹. Bu natija AI xizmatlarini joriy etishda faqat texnologik jihatga emas, balki foydalanuvchi psixologiyasiga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Milliy turizm yagona platformasini qishloq hududlaridagi turizm subyektlarini ham qamrab olgan holda kengaytirish;
- Mobil OTA platformasida ma'lumot sifati, shaxsiylashtirilgan tavsiyalar va navigatsiya tizimini mustahkamlash;
- Katta ma'lumotlar tahlili tizimini joriy etishda foydalanuvchi tomonidan yaratilgan ma'lumotlar (onlayn sharhlar, so'rovlar)ni ham qamrab olish;
- Raqamli moliya vositalarini kichik va o'rta turistik korxonalariga ham joriy etish;

Xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlari samarali amalga oshirish uchun bir nechta shartlar bajarilishi lozim. Mobil platformalarda ma'lumot sifati va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ta'minlanishi, katta ma'lumotlar tahlili tizimida foydalanuvchi ma'lumotlari keng qo'llanilishi, AI innovatsiyalarida inson omillari inobatga olinishi, mintaqaviy tafovutlar hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonda raqamli turizm sektorini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratilgan. Xalqaro ilmiy tajribani maqsadli tatbiq etish O'zbekistonni mintaqaviy raqamli turizm markaziga aylantirish imkonini beradi. Biroq buning uchun faqat infratuzilmaga emas, balki xizmat sifati, foydalanuvchi tajribasi va barqarorlik tamoyillariga ham izchil e'tibor qaratish zarur

Moxigul PULATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitki tayanch doktoranti

O'ZBEKISTONDA TURIZM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali mamlakatning xalqaro turistik bozordagi raqobat mavqeini mustahkamlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, turizm raqobatbardoshligining investitsiyalar jalb etish, eksport tushumlarini ko'paytirish, bandlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi o'rni asoslangan.

Kalit so'zlar: turizm raqobatbardoshligi, iqtisodiy o'sish, turistik xizmatlar, turizm infratuzilmasi, turistik mahsulot, investitsiyalar, eksport tushumlari, bandlik, raqamli texnologiyalar, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность повышения

¹²⁹ Ku E.C.S., Chen C.D. (2024). Artificial intelligence innovation of tourism businesses: From satisfied tourists to continued service usage intention. International Journal of Information Management, 76, 102757. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2024.102757>